

O'SMIRLARDA GIYOHVANDLIKKA BERILISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

OQBERDIYEVA FOTIMA NAZARALI QIZI

ALFRAGANUS UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA YO'NALISHI

2-BOSQICH MAGISTRANTI

Annotatsiya: Mazkur maqola giyohvandlikning ijtimoiy muammo sifatida yuzaga kelishi va uning yoshlar orasida tarqalishining ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik hamda biologik omillar asosida shakllanishini tahlil qiladi. Narkotik moddalarga qaramlik, shaxsnинг psixikasida va jismoniy holatida chuqur o'zgarishlarga sabab bo'lib, uning ijtimoiy muhitdagi o'rni va xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa profilaktika va reabilitatsiya dasturlarida kompleks yondashuvni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida narkotik moddalarga qiziqish ko'pincha do'stlar guruhi ta'siri va ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu holatda profilaktika va davolash strategiyalarini ishlab chiqishda ko'p tomonlama yondashuvning ahamiyati katta.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, addiktiv xatti-harakat, yoshlar, psixologik omillar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, biologik omillar, profilaktika, narkotik qaramlik, ijtimoiy muammo.

Kirish:

Bugungi kunda giyohvandlik muammosi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, sababi oxirgi 100 yil mobaynida giyohvandlik tibbiyotning tor sohasi doirasidagi muammodan umumijtimoiy muammoga aylanishga muvaffaq bo'ldi va u hozirda kompleks o'rganishni talab qilmoqda. Dunyo bo'yicha taxminan 200 million

kishi giyohvandlikka qarshi kurash olib bormoqda. Umuman olganda, o'rtacha yuqori rivojlangan davlatlarni misol qilib olganda, bu muammo bevosita yoki bilvosita tarzda 30 millionga yaqin odamni, ya'ni har beshinchchi fuqaro deyarli ushbu illatga bir tarzda duch kelganini ko'rsatadi.

Giyohvandlik endilikda umumxalq muammosiga aylanib ulgurgan bo'lib, u davlatga bevosita xavf soluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda: so'nggi ekspert baholariga ko'ra, har bir giyohvand o'rtacha 13–15 kishini giyohvandlikka jalb qiladi, natijada giyohvandlikning o'ziga xos "qor to'pi" effekti yuzaga keladi. Hozirgi bosqichda giyohvandlikning kengayib borishi barqaror ijtimoiy muammolardan biri bo'lib, uning muhim xususiyatlaridan biri — yoshlar orasida keng tarqalib borayotganligidir. Bunga yoshlarning psixik barqarorligining pastligi, ota-onalarning iqtisodiy holati, an'anaviy qadriyatlar tizimining devalvatsiyalashuvi kabi omillar sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Qaramlik xulq-atvori tushunchasi insoniyat tarixining juda qadimgi davrlaridan beri ma'lum. Ehtimol, bu holat insoniyatning shakllanishi bilan bir davrda yuzaga kelgan bo'lib, dastlab psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lgan. Ular qadim zamonlardan beri og'iz orqali qabul qilingan, chaynalgani yoki nafas orqali ichga tortilgani kuzatilgan. Ongda o'zgarishlar va ruhiy ko'tarinkilik holatini yuzaga keltiruvchi vositalar ijtimoiy, diniy marosimlar yoki mistik rituallarda keng qo'llanilgan.

Yoshlar orasida giyohvandlikka qaramlik xususiyatlarini tahlil qilganda, bu turdag'i xulq-atvorning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin: 1. Biologik omillar — bu ma'lum narkotik moddalarga tug'ma individual chidamlilik darjasи; alkogolizm va giyohvandlik bilan bog'liq irsiy moyillik; bosh miya faoliyatining organik shikastlanishi; organizm faoliyatining buzilishiga olib keluvchi og'ir surunkali kasalliklar. 2. Psixologik omillar —

giyohvandlik paytida yuzaga keladigan his-tuyg‘ularning jozibadorligi, lazzatlanishga bo‘lgan istak. Psixologik omillar ichida eng asosiy omil — bu xarakter xususiyatlaridir. Giyohvandlikka eng ko‘p moyil bo‘lgan shaxslar quyidagilardir: gipertimlar (ya’ni sarguzashtga o‘ch, faol), tsikloidlar (yengil depressiv va manik holatlar almashinuviga ega shaxslar), labil tipdagi shaxslar (hissiy jihatdan barqaror emas), shuningdek, epileptoid tipdagi shaxslar (tajovuzkor, tushkunlikka moyil, o‘ta beqaror xarakter egalari). 3. Ijtimoiy omillar — mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat xususiyatlari; giyohvand moddalar yoki preparatlarning mavjudligi va oson topilishi; moda omili; atrof-muhit va do‘sstar ta’siri. Yoshlar orasida giyohvandlik muammosi nuqtai nazaridan qaralganda, giyohvandlikning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilishga imkon beruvchi turli modellar mavjud. Bu modellar, shuningdek, giyohvand shaxslar bilan ishslash usullarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ model — bu model muloqot, muhabbat va samimiyn munosabatlarga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmaganligi bilan izohlanadi. Narkotik moddalarni qabul qilish orqali insonlar muloqotni "yengillashtiradi", ichki yopiqlik va tortinchoqlik hissi kamayadi, o‘z kuch va imkoniyatlariga nisbatan ishonch tuyg‘usi paydo bo‘ladi. Faollashtiruvchi model — kayfiyatni ko‘tarish, tetiklikni oshirish va faoliyatni kuchaytirish maqsadida narkotiklardan foydalanish bilan xarakterlanadi. O‘z-o‘ziga past baho beradigan va kuch-quvvatiga ishonmaydigan yoshlar o‘zlarida aksincha — ishonch, qo‘rquvdan holilik, erkinlik holatini hosil qilishga harakat qilishadi. Gedonistik model — narkotik vositalardan foydalanish orqali lazzatlanish, yoqimli hissiyotlarni boshdan kechirish maqsadini ifodalaydi. Konform model (lotincha *conformis* — o‘xhash) — bu modelda shaxs boshqalarga taqlid qilish, ulardan ortda qolmaslik istagi bilan harakat qiladi. Guruh ichida o‘z o‘rnini mustahkamlash uchun odamlar atrofidagilarning barcha harakatlariga, shu jumladan psixoaktiv moddalarni iste’mol qilishga ham ergashishga majbur bo‘ladi. Kompensator model — shaxs tomonidan o‘zida sezilgan ichki yetishmovchilik yoki nomukammallikni qoplash zarurati bilan bog‘liq. Ichki ziddiyatlar va hayotdagi

qiyinchiliklarni yengib o‘ta olmaydigan yoshlar, har qanday muammoni hal qilishning bir shakli sifatida aynan giyohvandlikka eng ko‘p moyil bo‘lishadi.

Natijalar:

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, narkotik moddalar inson umrining erta yakunlanishiga olib keluvchi omillar orasida birinchi o‘ringa chiqqan bo‘lib, yurak-qon tomir kasalliklari va xavfli o‘smalarni ortda qoldirgan. Giyohvandlik (yunoncha *narko* — qotish, uyqu holati, uvishish; *mania* — ishtiyоq, moyillik) — bu shaxsning butunlay yemirilishi, ruhiy buzilishlar bilan kechadigan, jismoniy va axloqiy tanazzulga olib keluvchi kasallikdir. Alohida xavotir uyg‘otayotgan holatlardan biri — bu giyohvandlikning yoshlar orasida keng tarqalayotganidir. Narkotik iste’mol qiluvchilarining uchdan ikki qismini 30 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tashkil etadi, ularning aksariyati esa narkotik vositalarga o‘smirlilik yoki hattoki bolalik davrida qaram bo‘lgan. Narkotiklardan foydalanishga ko‘pincha tengdoshlar guruhi ta’siri sabab bo‘ladi, bu guruhda giyohvandlik turmush tarziga aylangan bo‘ladi. Bu muammo nafaqat alohida inson salomatligiga, balki butun jamiyat va davlat sog‘lomligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Giyohvandlik — bu kasallik, ammo unda bitta bosqich — to‘liq sog‘ayish bosqichi yo‘q.

Sibs juftliklarini tahlil qilish — ma’lum bir kasallikning rivojlanishida genetik xususiyatlarning ta’sirini baholashda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv, shuningdek, oiladagi deyarli bir xil yashash sharoiti va tarbiyaning kasalliklar, xususan, giyohvandlik rivojlanishiga qanday ta’sir qilishi mumkinligi haqidagi savollarga ham javob topishga yordam beradi. Giyohvand o‘smirlar orasida o‘tkazilgan anonim so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, 73,3 % hollarda ularga narkotik moddalarni aynan do‘srtlari taklif qilgan, va ilk bor narkotikni sinab ko‘rishga undagan omillar sifatida o‘smirlar “do‘stlar bosimi yoki guruh ta’siri” (43,0 %) hamda “qiziqish” (23,0 %)ni ko‘rsatishgan. Bundan tashqari, 97 % giyohvandlarda do‘srtlari orasida narkotik iste’mol qiladigan shaxslar bo‘lgan. Kasallangan o‘smirlarning

ko‘pchiligi narkotikni aynan do‘satlari (50,0 %) yoki tanishlari (23,3 %) orqali topa olishganini ta’kidlashgan.

Muhokama:

Giyohvand o‘smirlar ota-onalari tomonidan jismoniy zo‘ravonlikka (urish yoki kaltaklash) ko‘proq duch kelgan. Tadqiqotlarimiz narkoman o‘smirlarning ota-onalari bilan ruhiy aloqasi zaif ekanini ko‘rsatdi — bu ularning sog‘lom sibslariga qaraganda ancha farq qiladi. Shuning uchun ular o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ko‘proq do‘sstariga, yoki eng yaxshi holatda buvi-buvalariga aytishni afzal ko‘rishadi, lekin ota-onalariga emas. Addiktiv xatti-harakatga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan otalar tomonidan bo‘lgan munosabat, ularning sog‘lom sibslariga nisbatan ancha yomon bo‘lgan. Giyohvand o‘smirlarning sog‘lig‘i holati ularning sog‘lom qarindoshlariniki (probандlar)ga nisbatan pastroq darajada. 96,0 % narkotik iste’mol qiluvchi o‘smirlar (probандlar orasida bu ko‘rsatkich 10,0 %) turli sog‘liq muammolari haqida shikoyat qilishadi.

Nevrologik buzilishlarga oid kasallik tarixida faqat 3,3 % o‘smir narkomanlarda hech qanday salbiy fon aniqlanmagan, bu ko‘rsatkich sog‘lom sibslar orasida 83,0 % ni tashkil etadi. 44,0 % narkotik iste’mol qiluvchilar bolaligida tez-tez kasal bo‘lganini bildirgan, sog‘lom sibslar orasida esa bunday holat qayd etilmagan. 80,0 % giyohvand o‘smirlarning anamnezida bosh miya jarohatlari mavjud (sog‘lom sibslar orasida bu ko‘rsatkich atigi 3,0 %), shulardan 45 % hollarda bu og‘ir darajadagi, hushdan ketish bilan kechgan jarohatlar bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirar ekanmiz, quyidagilarni ta’kidlash lozim: sog‘lom sibslar (yaqin qarindoshlar) bilan taqqoslaganda, narkoman o‘smirlarning hayotiy tarixida (anamnezida) tibbiy-ijtimoiy, xulq-atvoriy va premorbid (kasallikdan oldingi) darajadagi addiktiv xatti-harakatlarga moyillikni ko‘rsatuvchi omillar sezilarli darajada ko‘proq uchraydi. Bundan tashqari, giyohvandlikka chalingan shaxslarga sog‘lom sibslariga nisbatan bir qator individual psixologik

xususiyatlar xosdir. Shu sababli, yoshlar orasida psixoaktiv moddalardan foydalanishni oldini olishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda, shuningdek, addiktiv shaxslar uchun individual reabilitatsiya dasturlarini yaratishda profilaktikaning ko‘pyo‘nalishli (kompleks) yondashuv tamoyiliga qat’iy amal qilish zarur. Bu tamoyil psixoaktiv moddalarni iste’mol qilishni murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida talqin qilishga asoslangan bo‘lib, u o‘z navbatida ijtimoiy, psixologik hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar va profilaktik faoliyat shakllarini kompleks tarzda qo‘llashni talab qiladi. Bunday yondashuv o‘smirlarning ijtimoiylashuvining asosiy sohalarini qamrab olishi lozim.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, narkotik moddalarni iste’mol qilish va ularni o‘rganish tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Giyohvandlik — bu narkotik vositalar yoki psixotrop moddalarga qaramlik asosida shakllanuvchi kasallikdir. Keng omma ongida giyohvandlik — bu zararli odat, ya’ni insonning turli usullar (og‘iz orqali qabul qilish, hidlash, tomir ichiga yuborish) bilan narkotik moddalarni iste’mol qilishga bo‘lgan og‘ir va og‘riqli qiziqishi sifatida tushuniladi. Bu moddalarning asosiy maqsadi — ongsizlik yoki gallyutsinatsion holatga tushishdir. Narkotik moddalarga qaramlik shakllanishiga turli omillar ta’sir qiladi. Shulardan asosiyлари quyidagilardir: ijtimoiy-iqtisodiy omillar (yashash muhitining og‘irligi, moddiy ta’minotning pastligi), psixologik omillar (ruhiy beqarorlik, shaxsiy inqirozlar), biologik omillar (irsiy moyillik, miya faoliyatidagi buzilishlar va boshqa tibbiy sabablar).

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Bryun, E.A., Tsvetkov, A.V. Qaramlik psixologiyasi amaliyoti— M.: Fan, 2014. — 294 bet.
2. Zmanovskaya, Y.V. Deviantologiya: Og‘ish xatti-harakatlar psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma— M.: Akademiya nashriyot markazi, 2004.

3. Kalinichenko, O.Yu., Malygin, V.L. Addiktiv xatti-harakatlar: ta'rifi, modellari, omillari// Zamonaviy fan va ta'lim muammolari. — 2005. — № 3–4.
4. Mandel, B.R. Qaramliklar psixologiyasi (addiktologiya): O‘quv qo‘llanma / M.: Oliy o‘quv dargohi o‘quv qo‘llanmasi, NITs INFRA-M, 2015. — 320 bet.
5. Sobirov S.A. Narkomaniya muammolari va ularning oldini olish yo‘llari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Fan va Texnologiya, 2019. — 176 b.
6. Rasulov B.X. Yoshlar psixologiyasi va giyohvandlikka qarshi kurash metodlari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2021. — 240 b.